

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYAT XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI

NDPI huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Musiqiy ta’lim” kafedrası

Karimov Olimxo’ja Islomovich

**RUBOB PRIMA CHOLG‘USI
TARIXI VA IJROCHILIGI**

USLUBIY METODIK QO‘LLANMASI



Navoiy- Buxoro- 2019 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYAT XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI

NDPI huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish xududiy markazi


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Musiqiy ta'lim” kafedrası

Karimov Olimxo'ja Islomovich

**RUBOB PRIMA CHOLG'USI
TARIXI VA IJROCHILIGI**

USLUBIY METODIK QO'LLANMASI



Navoiy- Buxoro- 2019 yil

Ushbu uslubiy Metodik qo'llanmasi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, uning negizida axborot texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega. Ushbu Metodik qo'llanma ko'pgina fanlar uchun O'UM (O'quv uslubiy majmua) yaratishda, yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan o'quvchilar hamda talabalar foydalanishlari mumkin.

BBK.3.85

Tuzuvchi:

Karimov Olimxo'ja Islomovich
Buxoro davlat universiteti
"Musiqiy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Saidiy Said Bolta –Zoda
San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
O'zbekiston Respublikasi Bastakorlar Uyushmasi a'zosi, kompozitor
Xalqaro "Antiquye World" ilmiy Akademiyasi akademigi

Baxtiyor Mustafoyev
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
BVXTXQTUMOI "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim" kafedrasida mudiri

Zamira Qo'ziyeva
NVXTXQTUMOI "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim" kafedrasida mudiri

Ushbu uslubiy metodik qo'llanma mintaqaviy hamkorlikda NVXTXQTUMOI "Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim" kafedrasining 2019 yil 2-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

Ushbu metodik qo'llanma NVXTXQTUMOI 2019 yil 3-sonli ilmiy uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

Navoiy- Buxoro- 2019 yil

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek an'anaviy musiqasini yig'ish va o'rganish XIX asrning 70-yillaridan boshlab, keng miqyosda olib borila boshladi. Bu ishlarni asosan harbiy kapelmeysterlar olib borishgan. Ular orkestrda ishlash bilan birga, etnografik faoliyat bilan ham shug'ullanishgan. Birinchi navbatda, bular A.Eyxgorn va F.Laysiklardir. Xususan, A.Eyxgorn turli guruhlariga kiruvchi 36 ta xalq cholg'usidan iborat katalogni tuzgan.

Xalq cholg'ularini yig'ish va o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo'lim ochiladi va u bu bo'limga rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi.

O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir.

V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqasi madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi.

Musiqasi nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqasi haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lchash ishlari katta qiziqish uyg'otadi.

1933 yili Moskvada V.M.Belyayevning «O'zbekiston musiqiy cholg'ulari» nomli kitobi nashr qilindi. Unda 50 dan ortiq cholg'ularning tavsiflari berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada sinflashtirilgan.

Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o'zbek xalq cholg'ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo'llash uchun ularni qayta ta'mirlash, nota yozuvini kiritish kerak.

An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordilar.

A.I.Petrosyans «Cholg'ushunoslik» kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi. Shu bilan bir qatorda, ularni samarali qo'llash uchun amaliy maslahatlar ham berilgan.

Ancha yillar mobaynida ta'lim uslubiyoti shakllandi. Xalq cholg'ularini qayta ta'mirlash va takomillashtirish natijasida tovush hosil qilishning texnik usullari, yangi ijrochilik ko'nikmalari ishlab chiqildi.

Cholg'uda ijroning eshitish uslubidan nota yordamida ijro uslubiga o'tilishi o'quv repertuari ustida ko'p ishlashga, xalq cholg'ularida ijro maktablarini tashkil qilishga olib keldi.

Xalq cholg'u ijrochilariga ta'lim berishning uslubiy va didaktik asoslarini ishlab chiqish xuddi shu yo'nalishda olib borildi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston davlat konservatoriyasi «Xalq cholg'ulari» kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan bir qator fundamental darsliklar, o'quv qo'llanmalar, to'plamlar chop ettirildi.

Xalq cholg'ularida ijrochilik maktablari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, xalq cholg'ulari orkestrini tashkil qilish va ishlash bo'yicha o'quv-qo'llanmalar yozildi. Shunday qilib, xalq cholg'ulari yo'nalishi bo'yicha musiqiy ta'limning boshlang'ich bo'g'ini uchun ta'lim asoslari shakllandi.

Har qanday talaba butun o'quv yili mobaynida yetarli miqdorda keng umumta'lim va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Chunki, hammamizga ma'lumki, ko'pgina bitiruvchilarimiz o'z hayotlarini pedagogik faoliyat bilan bog'laydilar. Bu esa psixologiya, pedagogika, uslubiyot bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, keng dunyoqarashga ega bo'lishni talab etadi. Ammo shu paytgacha pedagogika tamoyillariga asoslangan, ta'limning o'ziga xosligini ochib

beruvchi, ijrochilik madaniyati yutuqlarini ifodalagan umumiy va shaxsiy uslublar ishlab chiqilmagan.

Rubob-prima cholg'usi qashqar rubobi oilasini kengaytirish maqsadida O'zbekiston konservatoriyasi professori A.I.Petrosyans tomonidan laboratoriyasining usto-sozgarlari va olimlarining xizmati va diqqat markazida yuzaga kelgan yangi cholg'udir. Prima rubobi mana 60 yildan beri xalq cholg'ulari orkestrlarda va ansambllarda yuqori mavqyega ega bo'lib, bugungi kunda mizrobli cholg'ularning eng kichigi va navqironi hamda tengsiz texnik ijro imkoniyatlarida xalqlararo ko'rik tanlovlarning goh g'olibi ham bo'lib, o'bru va e'tiborini qozongandir. Ushbu cho'g'u qashqar rubobidan yangicha ko'povozli tovushlarni aks sadosini yuzaga keltirish uchun nusxa sifatida yuqori diapozonlarni olishda moyil qilib yaratilgan sozdir. U **kichik oktavadagi sol** dan **to'rtinchi oktavadagi mi** tovushigacha keng diapazonga egadir.

Rubob-prima uch asosiy: kosa, dasta va bosh qismdan iboratdir. Rubob-primaning kosasi yarim sharsimon cho'zinchoq shaklga ega bo'lib, pastki qismi taxtachali qovurg'alardan yasaladi. Kosaning ustki qismi esa teri bilan qoplanadi. Kosaning va terining birikkan joyi tasma bilan jiyaklangan. Kosaning tagida to'rtta tugmacha-ilmoq bo'lib, torlarning bir uchi ana shu ilmoqlarga ilinadi. Teriga o'rnatilgan xarrak torlari pardalar uzra kerakli balandlikda ko'tarib turadi.

Rubob-prima to'rtta torga ega: **I – ikkinchi oktavadagi mi; II – birinchi oktavadagi lya; III – birinchi oktavadagi re; IV – kichik oktavadagi sol.**

Rubob-prima cholg'usining dovrug'ini yoygan sozanda-ijrochilarimiz – bular Respublika tanlov laureatlari Abdusalom Malikov, Shuhrat Ziyayev, Asqar Dadamuhamedov va boshqalardir. Rubob prima “Xordofon”lar guruhiga mansub cholg'u hisoblanadi.

NAZARIY QISM

1. YOSHLAR ONGINI RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY- AHLOQIY, MADANIY- MA'RIFIY TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosli vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek san'atining yangi bosqichi mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Huquq va erkinligini qo'lga olgan O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishini belgilab, yangi iqtisodiy va ijtimoiy dasturni ishlab chiqdi. Jahon hamjamiyatida mavqeyini belgilab, xalqaro aloqalarni mustahkamladi. O'zbek madaniyati, ayniqsa, san'atining mustaqillikdan keyingi rivojida O'zbekiston birinchi prezidenti I. Karimov farmoniga binoan 1997-yili O'zbekiston Badiiy akademiasining tashkil etilishi madaniy rivojning yangi bosqichini ochib berdi. Yangi oliy badiiy daigoh Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, shahar va viloyatlarda ko'plab san'at kollej, litsey va maktablari tashkil topdi. Bular esa o'z navbatida san'at olamiga ko'plab san'at ixlosmandlari, ijrochilari va iste'molchilarini yuzaga keltirib, badiiy muhit hayotini jonlantirdi. Bu muhit milliy san'at turlarining rivojlanishi uchun keng sharoitlar yaratdi.

Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari va sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasining yangi, hashamatli binosining san'at ahliga tuhfa qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Akademik litseylar va musiqa kollejlarini musiqa bilim yurtlari o'rnida tashkil qilinishi san'atkor yoshlar uchun juda katta zamindir. Kelajakda, o'rta maxsus musiqa litseylari hamda musiqa kollejlarida tahsil olgan iste'dodli yoshlar O'zbekiston davlat konservatoriyasining muhtasham binosida o'z olgan bilimlarini sayqallab, to'ldirib boradilar. Shuning uchun ham yosh iste'dodlarning bilim asoslarini iloji

boricha mustahkamlab borish yo'llarini izlab, ularni chuqur bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish muhimdir.

Respublikamiz ijrochi yoshlari o'z mahoratlarini chet ellarda manzur qilayotgan bir paytda, shu iste'dodlardan kelajakda yetuk dirijyorlar chiqib, chet el orkestrlari bilan konsertlar berishlari va O'zbekiston kompozitorlarining ham durdona asarlarini xorij tinglovchilari e'tiboriga havola qiladigan davr keldi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixi yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rk-u tarovatini saqlab kelayotgan osori aqidalarimiz qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morlik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalariidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassam-lashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar biz-ning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi ta'rixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aqliy zakovati, qalb qo'ri mahsuli

bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas asori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorliklar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram — sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tas-dig'idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni, otabobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fa-zilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga o'tkazishdagi beqiyos o'mi va ahamiyati bilan bog'liq. Va xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Oллоh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelaetgan yosh avlodimizga tug'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi haman dolzarb bo'lib qolmoqda.

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib; manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan,

tajribasiz, g`o`r yoshlarni o`z tuzog`iga ilintirib, boshko`zini aylantirib, ulardan o`zining nopok maqsadlari yo`lida foydalanmokda. Bunday nojo`ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha`niga dog` bo`lishini, oxir-oqibatda esa ma`naviy hayotimizga salbiy ta`sir ko`rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo`shib keladi.

Yana bir ulug` vatandoshimiz — Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma`naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo`lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ`ib etuvchi g`oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko`plab axloqiy-ma`naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e`tiborga moliyadir.

Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya`ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo — Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog`liqlik, Ollohning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Mo-turidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini da-vom ettirishga bel .bog`lagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o`rta asrlardagi g`oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o`z hayotini xavf ostiga qo`yib, avlodlarga ibrat bo`ladigan ma`naviy jasorat namunasini ko`rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e`tiqodini tuzatuv-chi» degan yuksak sharafiga sazovor bo`lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matona-tidan dalolat beradi.

Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g`oyalar islom dinimizning asosini o`qidik,, ezgulik va insoniyliqdan iborat deb biladigan jamiki mo`min-musulmonlarning qarash va intilishla-ri bilan hamohang edi.

O`zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go`zal Farg`ona diyoriini jahonga bu tadqiqotni jahon jamoatchiligi, butun musul-mon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo`lmish Islom konferentsiya-si tashkilotining Ta`lim, fan va madaniyat ma-salalari bo`yicha tuzilmasi — YUNESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yidda Islom ma-daniyati poytaxti deb e`lon qilingani ham ana shunday yuksak e`tirofning yana bir tasdiqidir. Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo`shgan betakror hissasi to`g`risida so`z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo`tabar zot merosining gultoji bo`lmish eng ishonchli hadislar to`plami — «Al-Jomiy as-sahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkin-chi muqaddas manba bo`lib, ahli islom e`tiqodi-ga ko`ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitob-larning eng ulug`i hisoblanadi. Mana, o`n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qal-bini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo`liga chorlab keladi.

2. QASHQAR RUBOBI TARIXI XUSUSIDA

(Chog'u san'atshunosligi morfologiyasi va ergologiyasi misolida)

*Musiqa, u jahon ma'naviy siyosatining eng kuchli quroli,
u ollohning er yuziga yuborilgan mo'jizaviy olami, tilsiz va tengsiz qudratidir!
Musiqa insonni beshikdan- qabrgacha uzluksiz tarbiyalash,
- sevish yo nafatlanish, kechirish yo o'ldirishga qodir!!! S.Saidiy.*

Markaziy Osiyo urma cholg'ulari bilan bir qatorda musiqaviy cholg'ular ham cholg'u sozgarlari va sozandalar tomonidan keng qo'llangan xolda rivojlanib, milliyashtirib kelingan, unga misol hozirgi zamongacha yetib kelgan, butun dunyoga mashhur bo'lgan "R u b o b" sozidir. Rubob soziga diqqatimizni jalb etsak, hozirgi davrgacha o'zbek-tojik an'anaviy cholg'usi sifatida qashqarlarga qaraganda, Buxoroyi Sharifda sug'diyona, zardushtiylarning qadimgi avlodi davrida va ular orasida bir necha ko'rinishlarda yasaliq qo'llanilganligi haqida ilmiy risolalar va manbalar mavjud. Rubob sozi qashqarlarda (ruhauza) - nomlanishi bilan mashhur bo'lib, 4-5 tagacha torlarda yasaliq, shakllanib kelishi bilan Xitoy xalqining sevimli va ommabop cholg'ulariga aylangan. Bu sozda ramz sifatida nusxa shakllangan bo'lib, bu mojaro Xitoy dinining qadimgi urf-odatlaridagi madaniy-mifologik tasvirda «ikki namud yog'och shoxlar»da o'z aksini topgan. Shoxlar mifologik jihatdan Xitoy podsholari yo sarkardalarining shoxsimon bosh kiyimini aks ettiruvchi, ulug'lovchi omilga aylangan bo'lgan. Ayni damda aholi ichida g'urursimon holat darajasida ta'sir baxsh etib kelgan. U bosh kiyimlar va undagi bo'lgan shoxlar «Shlem-Kaska» sifatli bo'lib, bular oldin suyakdan, asrlar o'tishi bilan tillo, kumush, mis va temirdan yasaliq kelingan. Bunday odatlar an'anaviy «ramz» sifatida boshqa, aniqrog'i harbiy tavsiflanishini olib, harbiy sarkardalarda keng qo'llanib kelingan.

Yana rivoyatlarda keltirilishicha, "Zulqarnayn" - Aleksandr Makedonskiy saroyida darvozasiining ikkita shohi bo'lib, shu ikki shox sabab u "Zu-l-qarnayn" (ikkita shoxli) deb laqab olgandi. Boshqa rivoyatlarga qaraganda, Iskandar (Aleksandr) boshidagi dubulg'aning (Shlem-Kaska) ikkita gsoxi bo'lgan. Bunday odat Chingizxonda ham bo'lganligi ma'lum. Xullas, bu belgi cholg'udan o'z o'mini topib, qashqarlarda taraqqiy etishida, uning tarixi "Ko'k-diniga" (shamanizmga) ularning totemlari "Hayvonlar

va qushlar" bo'lgani ham ma'lum. Bu davrda Buxoroda Ud-simon (Avlos, Lyutna) cholg'ularining bir necha turlari ham bo'lganligi haqida manbalarda Ayritom frizidan topilgan haykalcha (terrakota) lardagi cholg'ular tasviridan ham ko'rish mumkin. Keyinchalik bu cholg'u I-IV asrga qadar Xitoy bilan o'zaro savdo- sotiq va Buyuk ipak yo'li orqali Buxoroda ham savdo tufayli tomonidan tarqala boshladi.

O'zbekiston va Tojikistonda esa rubob o'zining soxti va tuzilishiga nisbatan qashqarlarga yaqin Pamudini olganki, hozirgi zamongacha qashqarlar mamlakatidagi «qashqar rubobi» nomi bilan mashhurdir.

«Buxor-rubob»-ning tarixi o'zgacha bo'lib, Tojik-ko'han aholisi ichida bu soz, Selefkidlar(Arshakiylar) davrida paydo bo'lgan. Bu davrda O'rta Osiyo madaniyatida Hindiston mamlakatining madaniyati, badiiy san'ati va dini kirib keladi. Ushbu cholg'u VIII asrda arablarning Markaziy - Osiyoga harakati tufayli yakson qilinganiga sabab; Buxoro rubobi «Varahsho» tomonlama "Buxor-xudod podsho" davrida keng tarqaldi. Buxorxudodning o'zi ham sozandalik san'atidan xabardor bo'lib ijro etib kelgan. Ushbu cholg'uning quloq va kosaxona qismida "buddaviy-terrakota" shaxzodaning yoxud parichehra firavnning bosh qismi aks ettirilgan bo'lgan. Torlari esa sof tillodan yasaliq, quloqchalari jimjimador va bejirim islami zanjirbof naqshlarda nafislik va murakkab uslubda yasalgani bilan bir qatorda qimmatbaho toshlar o'rnatilgan bo'lgankim, hammani hatto hayvonlarni ham hayratda qoldirib, shuningdek, uxlatib qo'yganligi haqida xabarlar mavjud. Arablar bu cholg'u va yana bir cholg'uda- g'ijjak sozlarida chalishni man etganlar, go'yoki bu cholg'ular shaytonning amriga ishoradur deyilgan. Kimda-kim bu cholg'ularda ijro etsa, qattiq jazoga tortilgan bo'lgan. Ammo, Buxoro rubobi esa butunlay farqlangan holda Xitoy rubobidan 300 yil oldingi davr, ya'ni 2300 yillik tarixga mansubdir. Xitoyda esa rubob cholg'usi Hindiston madaniyatidan bir nusxa sifatida o'tib, so'ng takomillashtirilgan hamda Hindistonga nisbatan ergologik jihatdan farqli-o'laroq shaklga erishib borgan. Manbalarda aytilganidek; "Kunlarning birida xitoylik bir musavvir (rassom) Hindistonga sayohat qilgani va u yerning madaniyati, badiiy san'ati bilan tanishgani yo'lga chiqadi. U Hindistondan qaytayotganida o'zi bilan bir nusxa chiroyli va shaklan qulay bo'lgan 4-(to'rt) torli «Git» cholg'usini ham olib

vataniga qaytadi. O'sha davrda Hindiston muomallasida bunday ommabop-bejirim nafislikda yasalgan va keyinchalik 5-(besh)tordan iborat bo'lgan «Gita» cholg'usi ularning sevimli va keng tarqalgan shohona sozlaridan biri bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, ushbu cholg'u qatorida "Kin", "Vin" va turli xil urma-zarbli hamda nafasli cholg'ulari serqirra ko'rinish va shakllardan iborat bo'lganligi haqida ilmiy risolalar ham mavjud. Ammo, ularning eng sevimli va butun jahonga tanilgan chiroyli bejirim va 16-ta xromatik ko'rinishli rezonatorlardan iborat "Sitor" sozini 12-asrda Xisrav Dehlaviy kiritgani va ixtirosi bo'lganligi haqida keng ma'lumotlar olish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganidek, Gita- cholg'usi Buyuk ipak yo'llarining geografik yo'nalishlari orqali keng tarqala boshlaydi. 1. Hindiston orqali Xitoyda «ruhausa» nomlanishini; 2. Xitoy orqali Farg'ona-Toshkentda shaklan o'xshashlikda «qashg'arlar (qashqar) -rubobi» nomlanishini; 3. Hindiston-Afg'oniston orqali Buxoroyi-sharifda Sitorsimon shaklda «buxor-rubob» nomlanishini; 4. Hindiston orqali Arabistonda «al-Ud» nomlanishini; 5. Arabiston orqali Isfag'onda, hozirgi Ispaniyada ko'rinishi shaklan ud-simon bo'lib- «Gitar» nomlanishini; 6. Ispaniyadan esa ko'rinishi shaklan o'xshashlikda Ovropoga ham kirib boradi va u «Gitar-Gitara» nomlanishlarini olgan. Jahonga mashhur xordofonlar guruhiga mansub, bir cholg'udan keng tarqalgan rubob sifat cholg'ularning umumiy rekonstruktiv assimilyatsiya va similyatsiyasida akadem-evolyutsiyasi turli xil ergologik texnologiyasining yasaliish va ko'rinishlarida, zamonamizgacha 4-5-6-8-12-torlarni tashkil etadi.

O'zbek va tojik xalqlariga mansub an'anaviy cholg'ularining kirib kelishi, hududimizda qayta o'rinishi, milliy o'zligimizni anglanishida borliq va undagi hayotimizning ruhiy taassurot omili sifatida, asosiy belgilaridan biri ekanligi shubhasiz.. Tariximizda ma'lumki bizdan Sharq va Ovropo mamlakatlariga o'tib, jahon sho'hratini qozongan xolda yana o'z vatanlariga qaytgan ommabop cholg'ularimiz mujassamlanishi-da, milliylikimizni imkon qadar tobaro chuqurroq his etilishi muhim rol o'ynaydi. "Moziydan sado" kabi tafakkuri olam baxsh etib kelmoqda.

Milliy cholg'ularimizning u yo bu yerlarda takomillashib tiklangani ijobiy hol albatta. Jumladan, an'anada sevimli cholg'ularimiz hisoblangan "ud", "qonun", "dovul" sozlari mustaqillik sharofati bilan yana takomillashtirilib kasbiy ijrochilik samaradorligini oshirmoqda. Shuningdek, "tavlak"(tablak), "g'ijjaki Boburiy", "tanbur-Bobur", "Udi Borbadiy", "Bobur-tor", "Buxoro -rubobi"(afg'on), "shashtor" kabilar ham ansambllardan keng o'rin olmoqda deyish mumkin. Bir-qatorida "Buxoro rubobi" va "manzur" cholg'ulari hamda sitor ham qayta tiklangan holda kasbiy ijrochilik yo'nalishlariga kirib bormoqda. Ammo, "Buxor-rubob" ning Islom halifatchiligi davrigacha bo'lgan nusxasi hali tiklanish arafasida deb bilsak, bunda hozirgi zamon Hindiston va Pomir xalqlariga mansub "Sitor" cholg'ulari yaqin misol bo'la oladi, deyish haqiqatga yaqinroqdir..

Xullas, tariximizga nomlarigina qolgan va vatanimizga qaytgan an'anaviy cholg'ularimizni usta-sozgarlar tomonidan tiklash masalasida, Xorazm va Buxoro sozgarlariga mamnuniyat bildirib, faxrlanishimiz darkor. Ularning faoliyatlariga iqtisodiy, moddiy-ma'naviy, akadem-ergologik laboratoriyalarini o'z o'mida tashkil etilishi ham bugungi kunning dolzarb maqsad va vazifalaridan biri ekanligini qayd qilish lozimdir.

“Qashqar rubobi” ning oilasiga mansub “RUBOB- PRIMA” va “RUBOB SOPRANO” LAR YANGI REKONSTRUKSIYADAN CHIQQAN CHOLG'U SIFATIDA 70 YILLIK TARIXGA EGADIR.

Markaziy Osiyo madaniyatida yangi dolzarb "Cholg'ushunoslik", "An'anaviy cholg'ular tarixi", "O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik tarixi" va spetsifikasini kutayotgan "Jahon cholg'ulari morfologiyasi", "An'anaviy cholg'ular manba'shunoslighi" kabi fanlarining kelajak yosh avlodlarimiz o'qituvchi va talabalariga imkon qadar jahon standartlariga xos tarzda o'rganish va o'rgatish, malakasini oshirish, yo'naltirib bilish darajasining ilmiy asoslarini akademik-bosqichlarida to'liq va butkul-yuqori darajada yechilishi hamda o'rgatilishi lozimdir !!!

3. HABIBULLA RAHIMOVNING HAYOTI A IJODIY FAOLIYATI



HABIBULLO RAHIMOV

(1946)

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Habibullo G'aybullayevich Rahimov 1946-yil-31-oktabrda Tojikiston Respublikasi hozirgi So'g'd viloyatining Nov tumanida tug'ilgan. 1974-yili Toshkent davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetini professor B.F.Giyenko sinfida tugatgan. 1976-yilda assistent - stajyor bo'lib professor B.I.Zeydman sinfida malaka oshirgan. 1989-yildan O'zbekiston davlat konservatoriyasida dars berib kelmoqda (2003-yildan professor) 1995-yildan O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi o'rinbosari Asarlari: "Ona qalbi", "Alpomish va Oybachin", operalari "Toshkent taronasi" "Navro'z" kabi 50 dan ortiq qo'shiq va romanslar, 30 dan ortiq qo'shiqlar "Parvona", "Mushkul savdo" musiqali drama va komediyalarga musiqa H.Rahimovning asarlari Fransiya, Ispaniya, Misr, Turkiya, Koreya, MDH davlatlarida ijro etilgan.

Zamonai o'zbek professional musiqa san'atining namoyandalaridan biri Habibulla Rahimov 70- yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston bastakorlar Uyushmasisafiga kirib keldi. U turli mavzu, shakl va janrlarida xilma-xil, barkamol asarlar yaratib, musiqa shinavandalarini xushnud etib kelmoqda.

Rahimov Habibulla G'aybullayevich Tojikiston Respublikasi Xo'jand viloyatining Nov tumanida 1946 yilning 31 oktyabrda taniqli sozanda G'aybulla Rahimov oilasida dunyoga keldi. To'ng'ich farzand bo'lgan Habibulla ota kasbini bolaligidan egallay boshladi. H. Rahimov Sodirxon Hofiz nomidagi Xo'jand davlat musiqa bilim yurtida tahsil ko'rdi. G'ijjak chalish bilan bir qatorda, unda musiqa bastalashda ishtiyoq tug'iladi. Musiqa bilim yurtini bitirgach, ustozlarning maslahatiga binoan, 1964 yili Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakul'tetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, B.F.Giyenko sinfida tahsil oladi. 1974 yili Davlat imtihonlariga shoir To'liqin so'ziga badiiy so'z ustasi, yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun "Osvenshim" nomli oratoriyasini taqdim etdi. 1974- 76 yillarda konservatoriyada assistentura –stajyorlikda professor B.I.Zeydman sinfida kasb malakasini oshirdi.

H.Rahimov konservatoriyada o'qish bilan bir paytda 1969-1974 yillarda Respublika damli cholg'ular maktab – internatida musiqa nazariyasi fanidan o'qituvchilik qildi. 1977-89 yillarda A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dosent lavozimlarida ishladi.

"Partitura o'qish va cholg'ulashtirish" fanidan dars berdi. 1989 yildan boshlab O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida ushbu fan bo'yicha talabalarga saboq berib kelmoqda. Konservatoriyada ishlash bilan bir qatorda H.Rahimov 1992 yildan buyon O'zbekiston Bastakorlar Uyushmasining Vise Prezidenti vazifasini bajarib kelmoqda.

H.Rahimov yaratgan simfonik va vokal – simfonik asarlar O'zbekiston milliy simfonik orkestri repertuarini yanada boyitdi. "Simfonik poema" (1974), al't va simfonik orkestr uchun "Konsert" (1975), ovoz (yakka xonanda) va simfonik orkestr uchun "Konsert"(1977), ovoz va simfonik orkestr uchun Ibn Sino

she'rlariga "Bewshta ruboiy", (1980), ovoz va simfonik orkestr uchun Uvaysiy g'azallariga "Beshta romans", (1983), simfonik orkestr uchun "Sayl" bayram uvertyurasi (1984), uchta simfoniya № 1 "Segoh" (1978), № 2 (1984), va № 3 (1991), simfonik orkestr uchun koreys xalq kuylariga "Fantaziya" (1992), fortepiano va simfonik orkestr uchun "Konsertino" (1996) shular jumlasidandir. Kamer simfonik orkestri uchun "Raqs" va "Tong" (1998) kuylari, ud va kamer orkestri uchun "Fantaziya" (1997), fleyta va kamer orkestri uchun "Oqshom qo'shig'i" (1999), dutor va kamer orkestri uchun "Qo'shtor" (2000), "Termalar" fantaziyasi (2001), Qashqar rubobi va orkestr uchun "Arabcha poema" (2000), U kompozitorlardan birinchi bo'lib organ cholg'usi, arfa, torli va urma zarbli cholg'ular uchun "Konsert- fantaziya" (1976) yaratgan.

H.rahimov o'zbek xalq cho'g'ulari orkestri uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, rubob va orkestr uchun "Qo'shiq va raqs" (1981), nay va orkestr uchun "armug'on" (1990), pubob- prima va orkestr uchun "Naqsh va tarona" (1990), qonun va orkestr uchun "Tarona va ufor" (1992), p'yessalari, opkestr uchu "Syuita" (1983), "Muborakbod" uvertyurasi, fortepiano va orkestr uchun "Yoshlik bayrami" (1995), konsertinosi, ovoz va orkestr uchun M.Ali so'ziga "Noma'lum soldat xotirasi" ga (1986), poemasi, orkestr uchun "Konsert" (1990), pubob va opkestr uchun "Konsert" (1991), fortepiano va orkestr uchun "Fantaziya" (1993), "arabcha raqs", "Yaponcha raqs", "Oydin kecha" (xitoy kuylari asosida), (2001), ovoz va orkestr uchun Navoiy g'azaliga "Poema" (1990), xonanda, xor va orkestr uchun Muqimov so'ziga "Bahouddin Balogardon" (1993), J. Jabborov so'ziga "Sohibqiron abadiyati" (1996) va T. Niyoz so'ziga "Istiqol" (1998) oratoriyalarini yozdi.

Bu asarlar orkestr repertuarlarini boyitish bilan bir qatorda musiqa o'quv dargohlari dasturiga kiritilgan.

H.Rahimov damli cholg'ular xususiyatlarini, cho'lg'ulashtirish yo'llarini puxta o'rganib, bu borada ham katta muvoffaqiyatlarga erishdi. Kompozitor damli cholg'ular orkestri uchun "Shodiyona" (1982), "Tong" (1987), Uvertyuralarini "

Yoshlik" (1987), "Yumoreska" (1985), "Skerso" (1986), "Raqs" (1987), "Yoshlik" (1987) p'yessalarini, 2 ta syuita (1989, 1990), 3 ta marsh (1993-1995) larni yaratdi. 1998 yili damli cholg'ular orkestri partiturasini o'qish uchun "Majmua" (Xrestomatiya) tuzdi.

AMALIY QISM

4. H.Rahimov musiqasi „Naqsh va Tarona“ Asarning tavsiloti va instruksiyasi

Habibulla Rahimov musiqasi „Naqsh va Tarona“ sharqiy o'zbekiston xududidagi mahalliy uslublariga xos o'lchoda yaratilgan bo'lib, ushbu kuy MI-minor tonalligida bastalangan bo'lib, Fa (#)- diyezd belgisi mavjud. Asar o'z mavsumida o'lchovini olgan bo'lib, allegro-M:M=120, asarning davomida 7/8 o'lchov duch kelgan va tonalligi RE minorga almashib SI- bemol belgisida ijro etiladi. **Sanoq taqsimlanishida;**

$$\begin{array}{ccc} (2+3) & & (3+4) \\ 5/8 \text{-----} = 5 & \text{va} & 7/8 \text{-----} = 7 \\ & & 8 \end{array}$$

5/8 o'lchov sanoq sanalishi (bir-ikki + bir-ikki- uch) yoxud teskari holatda bastalangan bo'lsa u holda (bir-ikki- uch+ bir-ikki) deb sanaladi.

7/8 o'lchov esa (bir -ikki -uch+ bir-ikki-bir-ikki) deb sanaladi. Teskari sanoqda bastalangan bo'lsa u holda (bir-ikki-bir-ikki+ bir-ikki- uch) deb sanaladi.

Tezligida Meno-Mosso (sekinroq) M:M=80 ijro etiladi. Asarning mavsumida kadensiya yuzaga kelgan bo'lib ijrochining mahoratiga va asarning tavsilotidan kelib chiqqan holda bajarishi va yakka tartibda jo'rnavoziy ijroni bildiradi. So'ng yana o'z tempida 5/8 o'lchovga o'tib davom etgan. „Naqsh va Tarona“ - kuyining ijro bezatgichlari va dinamik atfenkalari boy me'yorda o'rinishgan .

“Naqsh va Tarona” kuyining ovoz diapozoni SOL kichik oktavadan uchinchi oktava SOL gachani tashkil etsa, eng pastki va yuqori ovoz diapozoni 4 oktavaga tegishli bo’lib, tovush hajmi to’rt oktavani tashkil etadi.

Ushbu asar 10- taktidan boshlansa- da, ammo, takrorlanish xususiyatini olgan yagona H.Rahimovning kompozitorlik san’atidir. Shuningdek, kompozitorlarning asar yaratish yo’nalishi va ister’dotini inobatga olsak, u holda yagona va izchil yangi kompozisiya hisoblanadi.

Asarning umumiy hajmi 118 takti tashkil etgani bilan, ushbu, yakka tartibdagi kodensiya ijrochiligini, o’zga xos obrazi va kompozision uslubida erishganligi ma’lum bo’lmoqda.

Solo - yakka tartibdagi ijrochiligi 108 takt va ozod kodensiya tartibini o’z ichiga olganligi bilan alomatlari boy tasvirga egadir. Asarning mavsumi 16 talik, sakkiztalik va chorak notalarni o’z ichiga olgan bo’lib, yana nuqta, ya’ni nota quruvidagi notasiyani yarmini qo’shib ijro etishni bildiradi. Bezatgichlardan kresh’endo (ovozni kuchaytirib borish) va dekresh’endo (ovozni pasaytirib borishni bildiradi) reprizalar va ular ichida I- va II- Volt’e alomatlari mavjuddir. Shuningdek, trellar (unison tartibida shal rez berib turish), dinamik belgilardan forte, piano, fermato, rittonuto belgilari o’rin olgan bo’lib, kompozision tartibida legatolar ko’p uchraydi. Ushbu asarni xonalarga bo’lingan holda 13 xonani o’z ichiga olganligidan dalilat beradi.

5. Asarning tahlili

Habibulla Rahimov musiqasi „Naqsh va Tarona” asari 5/8 sakkiztalik o’lchovda fortepiano ijrochiligida boshlanib, kirish qismidan dalolat beradi va ushbu I- xona jo’rnovoz qismi bo’lib, 9 taktli ijrodan iborat ekanligi ma’lub bo’ladi.

Pubob Prima ijrosi I- xonaning 10 – takti SI notasidan boshlangani. Ushbu xona 17 taktli ijroni o’z ichiga olgan bo’lib, reprizalar orqali davom ijroda esa I vol’tani tashlab II vol’taga yangi shxzarblik nota quruvidagi ijroga o’tib, so’ngi

davom yangi xonaga o’tgandir. boshida legato, triol vakresh’endo belgisi o’rin olgan. Ular asarning btavsilotiga muhim o’rin olib, maxsus ahamiyat kasb etishni talab etgan.

II - xona 12 taktli ijrodan iborat bo’lib, 7 taktidan boshlab, dekresh’endo (pasaytirib boorish) va P- piano belgisigacha tushib, messo forte belgisida , ya’ni unchalik baland tovush tebranishida xonaning yakuniga qarab kresh’endo orqali tovush tebranishini ko’tarib boradi.

III- xona 4 taktli reprizani o’z kompozision tartibida olgan bo’lib, takroriy ravishda ijrodan o’rin olgan va forte tovush tebranishi balandigida egadir. Pianodan boshlab, F (forte) tovush balandligigacha ko’tarilishini bildiradi. Shuningdek, LYA uchinchi oktavagacha yuqori pozitsiyada kekma- ketlik arpedjio texnikali ijroni tashkil etganligi ma’lum. Ushbu kresh’endo orqali ohista-ohista tovushni ko’tarib borishi lozimdir. Ya’ni P – pianodan boshlab F- fortegacha II- (ikkinchi) vol’tada o’z o’rnini topgan. Ushbu xonaning umumiy hajmi 9 takti tashkil etadi.

IV- xona 8 taktli ijrodan o’rin olgan bo’lib, piano tovush tebranishida boshlangan. Ijroda legatolarga ahamiyat berib ijro etishni va kuychanlik ifodasini go’zallik mavsuminda qaytishini bildiradgalik. Xona mavsumida forte tovush balandligi o’z o’rnini opan bo’lib, ushbu mf- messo forte orqali amalga oshiriladi.

V- xonadan asar o’z ijro mavsumini davom etib, 7 taktli ijroni o’z ichiga olgan.

VI- xona 7/8 o’lchovda RE- minor tonalligida SI- bemol belgisiga almashib borgan va ijroni o’z kompozision tasniflanishida olgan. 6-xona 10 taktli ijrodan iboratdir. Ushbu xona ijrochiligida to’lqinsimon tavsilot o’z o’rnini topgan bo’lib, u mf<F>mf obrazini o’z ichiga olgan. asarda birtalik forshlyaklar tez-tez o’rin olgan bo’lib navqiron an’anaviy tusini olganligidan dalolat beradi.

VII- xona 8 taktli davom ijro mavsumini olgan bo'lib, O'z mavsumida legatolar va **mf** < **F** < **mf** ketma-ketligida, ijroning boshqa xonalar bilan uzviy bog'lanuvchaliqidan dalolat beradi.

VIII- xona 13 taktli ijroni o'z ichiga olgan. 5-taktidan boshlab **f**- forte tovush to'liqida ijro mavsumini olgan. Ammo u asarning bosh kulminatsion avji ekanligidan dalolat berishida uchinchi oktava **SOL'** –nota balandligiga chiqqanligidan dalolat beradi.

IX- xona 10 taktli davom ijroni o'z ichiga olgan bo'lib, ammo ijro kompozitsiyasi keying xonadagi kadensiya bilan bog'lanib ketgan. Yana choraktalik nota nuqtasi bilan 1-2-3 ijro sanog'ini bildirsa, yarimtalik nota **RE-** esa, 1-2-3-4 deb sanalalishini bildiradi. Shu holat ikkinchi oktavadan ham o'rin olgan.

X – xona yakka ijroda sof **Kadensiyadan** iborat bo'lib, bunda; fermato belgisi tez-tez uchrashib turadi. Asar mavsumida bastakorning diqqatida **SI-** bekor etilgan holdagi ijro davom etgan bo'lib, intonasiyaning o'zgarishi va garmonik ton-frigiya ladiga o'tganligini bildiradi. Kadensiya o'lchamini choraktalik nota joylanishi bilan taqqoslaganda 50-54 ta choraktalik notaga teng keladi. Qiziqarlisi shundaki, ushbu jarayonni ijro etish uchun ijrochi mutribdan sinchkovlik bilan mashq qilishni va butun mavzuni ifodaviyligini taassuroti va obrazlarini ifodaviyligini ko'rsatishi lozim ko'rinadi. Asosan, yuqori mahoratli ijrochi bo'lishni talab etadi va o'z salohiyati va qobiliyatiga havoladir. Shuning uchun ushbu kompozitsiyani bastakor **H.Rahimov** qanday ijro etilishini ijrochining ozod qarashlariga, konkurs tarzida havola etgan. Kadensiyaning oxiriga kelib, fermato belgisi kulminasion o'zgarishga da'vat berguvchidir. Ushbu ikki marotaba o'z o'rini fermatolarda aks etgan bo'lib, oxirgi passaj esa arpedjiodan so'ngi ijroda triolsimon holatda, rittonuta orqali bosh mavzuga o'tilishini bildirgan. (sezdirgan deyish ham mumkin).

XI- xonadan boshlab asar o'z holatiga qaytgan va yana 5/8 o'lchovga **MI-** minor tonalligiga o'tib, asar allegro tezligida ijro etiladi. Urg'ular asarning

tavsiflanishini yanada ochib berilishi uchun qo'llanilgan deyish mumkin. Ushbu xona 8 taktli ijrodan iboratdir.

XII- xona 12 taktli ijro mavsumi kompozitsiyasiga erishgan bo'lib, kresh'endo belgisiga rioya qilingan holda ijro etilishi shartlidir.

XIII- xona yakunlovchi xona hisoblanib 4 taktli ijroni takroriy reprizalarda namoish etgan va takrorlanishida **II-** vol'taga o'ttib yakunlovchi 3 taktli ijroda 16 talik nota kompozitsiyasida yakun topgan. Yakunlovchi **MI** notasi **f**-forte tovush to'liqini balandligi tebranishini olgan va ushbu **I** (bir) deb qabul qilinadi. Davomida esa sakkiztalik va choraktalik ncta nuqtasi bilan jo'rnavozchining bir xil tuti ijrosida yakun topishida saxna mahoratiga ega bo'lishini, ya'ni har ikkala ijrochidan xushyorlikni talab etgan holda o'z yakuniga erishgan.

Asarda fortepiano jo'rnavozligi kuzatuvchaliqida o'zda xos sharqona qadamda akkordlar orqali asarni yanada jozibali va taassirchanligini o'z badiiyligida ifoda etilishi uchun keng imkoniyatlarda kompozision qurilmasida extiyodkorlik bilan namoish etgan.

XULOSA

O'zbekiston xalqining musiqiy merosida xalq kuylari juda katta va muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bastakorlik muammolari musiqashunos va sharqshunos olimlarimizning diqqat – e'tiborini ko'pdan beri o'ziga jalb etib keladi va bu masala musiqiy san'atimizda juda katta tarixiy-ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Manashunday badiiy, texnik imkoniyatlarini to'liq ishga solib asarning mazmunini to'la va ishonarli ochib berishi lozim ko'rinadi. ijrochining mahorati qancha yuqori bo'lsa va profetsional ijro mahoratiga ega bo'lsa shunchalik uning kasbiy yo'nalishga, o'zga xos yo'liga ega bo'ladi.

Asosan “xalqlari cholg'ulari ” san'atining barcha sir-asrorlarini o'rganish, uning tarixini bilish, kelajak avlodga meros qoldirish bizning vazifamiz ekanligini tushunib yetdim. Kollejda o'qish davrimda O'zbek an'anaviy, xalqchil va boshqa qardosh davlatlar kompozitorlaridan sharq va yevropa kompozitorlari asarlarini ijro etishga erishdim va asarlarni kuyladim hamda tahlil qilishni o'rgandim.

Men, Navoiy Madaniyat va san'at kolledjining “xalqlari cholg'u” yo'nalishining **“Rubob –Prima” sinfi bo'yicha Ustozim Fahriddin Hamroyev rahbarligida 3 yil tahsil oldim.** Bunda men ustozlarimning beminnat xizmatlari, bilimlari, mehrlarini doimo his gilib, o'zim uchun kerakli bo'lgan barcha saboqlarni olishga harakat qildim.

Shuningdek, ansambl va orkestrda turli xil rangba- rang asarlarni ijro etib, o'zimni mutaxassisligimga oid serqirrali jarayonlarni va qoidasiga rioya qilingan holda san'atning ayrim sirlarini o'rganishga muvaffaq bo'ldim.

Mening maqsadim NavDPI dargohga borib bilimimni yanada oshirish. Buning uchun ko'pgina mehnat, harakat kerak bo'ladi. Ota-onamga, ustozlarimga suyanib kelajakda yaxshi mutaxasis bo'lish, va xalqimga xizmat qilish oily fazilatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999.- 230 b.
2. Saidiy S.B. Buxoro sozgarlik san'ati- “mahorat ko'zgusi”.G` J.Buxoro-1999.y.
3. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida)
4. Rasultoev J.K. dutor semantikasi. “Moziydan sado” //J.G'.G'ulom nashr.Toshkent,-2001y.
5. Абдуллаев Р.С. Обрядовая музыка народов Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994.– 135 с.
6. Апраксина О.А. Хрестоматия по методике музыкального воспитания.- М.: Просвещение, 1987.– 180 б.
7. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari.- T.: O'qituvchi, 1970.– 278 b.
8. Said Bolta-Zoda Saidiy, Bektamishova n. “Aniq fahlar boglanishida “oliy asab faoliyatining ong osti harakatlari” da musiqiy ijrochilik uslublari”. //«Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik-pedagogik muammolari» mavzusidagi I ilmiy –amaliy viloyat konferentsiyasi tezis materiallarining to'plami // Navoiy – 2007. 29-32 b.
9. S.B.Saidiy.- Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida) cholg'ushunoslik asoslari darsligi;Toshkent - “Musiq” - 2008.
10. Sh.Raximov. Cholg'ushunoslik. «Musiq» nashriyoti. 2008 y.
11. I.G'anieva. Sharq xalqlari musiqa madaniyati. Toshkent. “Musiq”,2010.

INNOVATSIYA

Milliy cholg'ular va ularga qo'shib ijro etiladigan IDIOFONLARda



“izla-o'yla –top” o'yini.


O'yin instruksiyasi:

1. O'yin 5-ga bo'lingan bitta gurux bilan boshlanadi. Gurux soni 25 ta bo'lsa, demak 5 ta guruxchalarga bo'linib boshlanadi.
2. Slaytdan o'rin olmagan cholg'ular bilan davrani to'ldiring ;
3. Milliy cholg'ularga tegishli bo'lmagan cholg'u nomini kiritgan o'yindan chiqadi!;
4. Har bir cholg'u nomini kiritgan guruxchaga 1 – ball belgilanib, eng yuqori ballga erishgan g'olib hisoblanadi. Misol: 4- ta cholg'uga 4- ball, 10- ta cholg'u nomiga 10 ball belgilanib boriladi. G'olib 10 daqiqada hal bo'lishi shart!.
5. davrada 16 xil cholg'ularimiz nomlari keltirilgan bo'lib, qolgan cholg'ular va idiofonlardan iborat 15- tasi o'yinga kiritilmagan, bular;

Davradan o'rin olmagan cholg'ular va idiofonlar tasnifi;

1. “qo'sh-nog'ora”, 2. “tablak”, 3. “changqovuz”, 4. “bo'lamon”, 5. “G'ijjak”,
6. “Dutor Kontra bas”, 7. “rubob prima”, 8. “dutor sekunda”, 9. “chang bas”,
10. “qoraqalpoq – qobuzi”, 11. “nay pikalo” 12. “safoil”, 13. “qayroq”,
14. “zanglar”, 15. “qoshuq”, “al-ud”.





MUNDARIJA

KIRISH.....6-8

NAZARIY QISM

1. Yoshlar ongini rivojlantirishda ma'naviy- ahloqiy, madaniy- ma'rifiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati.....9-14

2. QASHQAR RUBOBI TARIXI XUSUSIDA (Chog'u san'atshunosligi morfologiyasi va ergologiyasi misolida) 14-18

3. Habibulla Rahimovning hayoti a ijodiy faoliyati.....14-20

AMALIY QISM

4. H.Rahimov musiqasi „Naqsh va Tarona” Asarning tavsiloti va instruksiyasi.....21-22

5. Asarning tahlili.....22-24

XULOSA.....27

Foydalanilgan adabiyotlar.....28

INNOVATSIYA.....29